



SAMARQANDNING ARXEOLOGIK TURIZM RESURSLARI

G.R.Tursunova

SamISI, "Turizm" kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15690290>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 17th June 2025

KEYWORDS

arxeologiya, topilmalar, qal'a devorlari, Afrosiyob, O'rta asr mudofaa devorlari qoldiqlari, ilk O'rta asrlar davriga tegishli hukmdorlarning yozgi saroyi, Namaltepa, Jalamatepa, Oroltepa, Mingbuloqtepa, Qaroqchitepa, Kuyuttepa.

Bugungi kunda Samarqandning turistik salohiyatini yanada yuksaltirish hamda uni dunyo turistik markazlaridan biriga aylantirish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, logistika masalalari hamda turizm sektorini rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqdadir. E'tiborlisi, 2019-yilda Samarqand Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasi (WTCF) a'zoligiga qabul qilindi. Demak, endi Samarqand haqiqatdan ham dunyo turizm shaharlari orasida o'z o'rnini topib, yirik turistik markaziga aylanishi shubhasizdir. Shuningdek, Samarqand 2023-yilda Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasiga mezbonlik qildi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, Turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov 30-noyabr-3-dekabr kunlari Ispaniyaning Madrid shahrida bo'lib o'tgan UNWTOning 24-sessiyasida ovoz berishdan so'ng ma'lum qilgan edi. Madriddagi tadbir doirasida O'zbekiston va Portugaliya 2023-yilda UNWTO Bosh Assambleyasini o'tkazish uchun ariza topshirgan mamlakatlar bo'lib, tadbir natijasida O'zbekiston ko'pchilik ovozga ega bo'lgan va navbatdagi assambleyani 2023-yilda qadimiy Samarqand shahrida o'tkazishga qaror qabul qilingan edi.

Samarqand ulkan turistik salohiyatiga ega ekanligi, "Buyuk ipak yo'li"da joylashganligi turistlarni yanada ko'proq tashrif buyurishiga sabab bo'lmoqda. Respublikamizning turli shaharlarida joylashgan 8 ming 250 dan ziyod madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, shundan 2330 tasi me'morchilik, 3945 tasi arxeologik, 1138 tasi monumental yodgorliklar va 157 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi, ayni paytda O'zbekistondagi 4 ta me'moriy majmua Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Turistlarni asosiy jalb etadigan tarixiy yodgorliklar, ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolarning ulkan qismi aynan tarixiy shaharlarda joylashgan. Xususan, Samarqand viloyati hududida 1607 ta tarixiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 975 tasi

ABSTRACT

Ushbu maqolada Samarqandning arxeologik turizm resurslari va uning qoldiqlari topilgan asosiy manzilgohlari yoritilgan bo'lib, rus hamda mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar asosida topilgan topilmalar haqida bayon etilgan.

arxeologik, 562 tasi arxitektura obyektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari, 34 tasi diqqatga sazovor joylar va 11 tasi muzeylardir.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Samarqand viloyatida 975 ta arxeologik madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan eng mashhurlari sifatida Afrosiyob qal'asi, O'rta asr Samarqand shahar Oxanin darvozasi qoldiqlari, Samarqand shahrining O'rta asr mudofaa devorlari, Sabr-ato qabristonidagi tarixiy manzilgoh arxeologik qoldiqlari, Bozori Sunduk hammomining arxeologik qoldig'i, Paleolit davri manzilgohi, Ikki Sharbatdor mahallasining ikki hovuzlari o'rinlari, Ibrohimxo'ja mahalla masjidi va hovuz qoldiqlari, Changhovli mahalla masjidi qoldiqlari, Samarqand shahar O'rta asr qal'asi arxeologik qoldiqlari va shu kabilarni misol sifatida ta'kidlashimiz mumkin.

Shunday obyektlardan biri **Afrosiyob qal'asi** bo'lib, O'zbekistondagi madaniy meros obyekti, tarixiy-arxeologiya yodgorligi hisoblanib, ushbu obyekt miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga tegishlidir. Afrosiyob yodgorligi hozirgi Samarqandning shimoliy chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklari bo'lib, uning maydoni 219 gektarni tashkil etadi. Tepalikning shimoliy qismi Siyob arig'i bilan chegaralangan. Janubiy tomondan "eski shahar" deb atalgan Samarqandning bir qismiga qo'shilib ketgan.

Mazkur manzilgoh Samarqand shahar atrofidagi Imom Vose MFY hamda Kircha MFY, Shohi-Zinda ko'chalari bilan birga Siyob va Obi-Mashxad ariqlari oralarida (Toshkent ko'chasi) joylashgan. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqqa ko'ra ushbu majmua davlat mulki hisoblanadi. Bu Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi operativ boshqaruv huquqi asosida tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan hamda davlat muhofazasiga olingan.

Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. Ko'hna shaharda o'tkazilgan arxeologik qazishma ishlari esa bunday ma'lumotlarni ko'proq bermoqda. Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo'lganligini ko'rishga, boylar va kambag'allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do'konlarini, ko'cha va maydonlarni, shohona saroylar va ibodatxonalarni, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta'minlash tizimi va hokazolarni aniqlashga yordam beradi.

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868-yilda Chor Rossiyasi tomonidan Samarqand bosib olingandan keyin boshlandi. Afrosiyobda dastlabki qazish ishlari bilan mayor Borzenkov (1874), podpolkovnik V.V.Krestovskiy (1883), sharqshunos olimlar N.I.Veselovskiy (1884-1885; 1895), V.V.Bartold (1904) va V.L.Vyatkinlar (1905; 1912-1913) shug'ullanishdi. 1919-yilda M.E.Masson va V.L.Vyatkinlar tadqiqot boshlagan joylarda qazishma ishlarini davom ettirib, somoniylar saroyi (IX asr) xarobalarini ochdilar. 1925, 1929 va 1930-yillarda V.L.Vyatkin Afrosiyobda qazishma ishlarini davom ettiradi va uning turli davrdagi tarixiga oid ko'plab materiallar to'playdi. Ammo 1930-yillarga qadar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalarda qadimgi Samarqand tarixiga oid juda kam ma'lumotlar berilgan.

Urushdan keyin esa O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan V.A.Shishkin va I.Terenojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o'tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli buyumlar va uy-joy xarobalari topildi. V.A.Shishkin (1958-1966) va Ya.G'ulomovlar (1967-1970) rahbarligida olib borilgan keng ko'lamlar arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi madaniy qatlam ma'lumotlari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966-yil 13-iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o'rganishni tashkil etish maqsadida respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Afrosiyob "arxeologik qo'riqxonasi" deb e'lon qilinib, uni o'rganish ishiga Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko'p

asrlilik yoshi, balki uning har xil davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergan bo'hronlar davri aniqlandi. Afrosiyob manzilgohi nomining kelib chiqishi etnograf olim V.L.Vyatkin asarlarida qayd etilib, Afrosiyob degan nom XVII asrdan boshlab yozma manbalarda tilga olinib boshlagan. Bu davrgacha esa uni "Hisor Ko'hna", "Qal'ai Ko'hna" (Eski qal'a) kabi nomlar bilan atashgan. Bugungi kunda xalq orasida ham, ilmiy qo'lyozmalarda ham Afrosiyob nomi bilan ataladigan bo'ldi.

Yana bir etnograf tadqiqotchi V.A.Livshis yodgorlik nomini "Parshab" (sug'dcha Parshvab) ya'ni, "Siyob usti" so'zidan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlarini bayon etadi. Biroq, respublika hududida Afrosiyob nomi bilan bog'liq boshqa ko'plab geografik nomlar ham mavjud. Jumladan, Toshkent shahridagi Mingo'rik tarixiy yodgorligining boshqa nomi "Afrosiyob oshxonasi" bo'lsa, "Shohnishintepa" hududi "Afrosiyob taxti" deb nomlanadi. Shu bilan birgalikda, Qashqadaryo viloyati Kitob shahridagi yodgorlik nomi ham Afrosiyob nomi bilan aloqador.

Afrosiyob XII asrda amalga oshirilgan mo'g'ullar hujumidan so'ng ana shunday xaroba holatga kelib qolgan. U o'sha davrlarda Samarqand shahrining markazi bo'lgan. Ammo hududning afsonalarda tilga olingan Turon shohi nomi bilan atalgan tepalik yaqinidan oqib o'tuvchi Siyob arig'i bilan hech qanday bog'liqlik joyi mavjud emas.

Samarqandning mo'g'ullar hujumi davrigacha asosiy markazi bo'lmish Afrosiyob o'sha vaqtda mustahkam qal'a devorlari bilan o'rab olingan edi. Ibn al-Faqih o'z asarlarida qal'a haqida yozar ekan, uning Kesh, Xitoy, Usturshona va Ohanin singari nomlar bilan ataluvchi darvozalari haqida alohida to'xtalib o'tadi. Har qanday geografik hududlarda bo'lgani singari, mazkur maskanda ham darvozalar nomlari keyinchalik o'zgarib ketgan. Afrosiyob darvozalari xususida ma'lumotlar qoldirgan Al-Ishtaxriy (X asr) Kesh nomli darvozani "Katta", Ohanin darvozasini "Navbahor", Usturshona darvozasini esa "Buxoro" nomlari bilan tilga olgan. Mazkur darvozalarning biri hozirgi Xizr masjidi o'rnida joylashgan bo'lib, bu darvoza o'z davrida Kesh, keyinchalik Katta darvoza nomlari bilan mashhur bo'lgan.

Arab tarixchisi Al-Ishtaxriyning yozishicha, bu darvoza toza temirdan yasalgan bo'lib, unda xalqqa noma'lum tilda yozilgan yozuvlar mavjud bo'lgan. Tub aholi vakillari mazkur yozuvlarni "imyariy yozuvi" (arab qabilalaridan biri) deb hisoblashgan. Tarixchi Bloshe esa bu yozuvlarni O'rxun bitiklari bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'tadi. Al-Ishtaxriy Samarqandga kelgan vaqtida bu yerda qo'zg'alon ko'tariladi. Qo'zg'alonchilar tomonidan mazkur temir darvoza buzib tashlanadi. Keyinchalik esa uni shahar hokimi Abul Muzaffar qayta tiklaydi, ammo avvalgi darvozada mavjud bo'lgan bitiklar yangi darvozaga yozilmaydi.

2019-yil 20-aprel sanasidan boshlab Janubiy Koreyadan Samarqandga tashrif buyurgan bir guruh elchilar Afrosiyob yodgorligiga tashrif buyurishdi. Samarqandda mehmon bo'lgan Janubiy Koreya Prezidenti Mun Je In qadimiy Afrosiyob devorlaridagi suratlarga nazar solar ekan, u manzilgoh haqida shunday fikr bildirgan: "Men O'zbekistonga kelayotganimda 1400 yil oldingi bir kunni yodga oldim. U qadimiy koreys davlati elchilari Samarqandga kelgan kundir. Otga yoki tuyaga minib dam olmasdan mashaqqat chekib kelishlariga ikki oycha vaqt ketgandir. Baland tog' tizmalari, adirlar va cho'llardan o'tib, qor va yomg'irda qolib, ba'zida jazirama va sovuq bilan kurashib uzoq vaqt sarflagan bo'lsalar kerak. Bugun siz azizlar kabi 1400 yil oldin O'zbekistonning qadimiy ahli ham uzoqdan kelgan mehmonlarni iliqlik kutib olgan. Mustahkam do'stlik va ishonch Afrosiyobning g'arbiy devoridagi suratda o'z aksini topgan. Garchi, Koreya va O'zbekiston bir-biridan uzoqda bo'lsa ham qadimiy koreys davlati davridan boshlab elchilari kelib ketadigan do'st davlatlar bo'lgan".

Uzoq yillar Janubiy Koreya hududidagi qadimiy davlatlar va yurtimiz o'rtasidagi madaniy aloqalar haqidagi aniq ma'lumotlar kamyob edi. O'tgan asrning o'rtalarida topilgan qadimiy suratlar esa ta'bir joiz bo'lsa, tarix ilmini ostin-ustun qilib yubordi. Aslida hammasi mana bunday boshlangan edi: "Samarqand shahrining tarixiy qismida VI-VII asrlarda gullab-yashnagan Afrosiyob shahri qoldiqlari yotibdi. Ushbu yirik arxeologik yodgorlik Samarqand

shahri tarixidan darak beruvchi muhim yodgorliklardan biridir. Arxeologlar bir-birini bosib turgan 11 ta madaniy qatlam borligini aniqlagan. Shaharning zamonaviy relyefida qudratli qal'aning xarobalari, ko'hna mudofaa devorlari, qachonlardir shaharga suv keladigan kanalning vayronalarini oson ajrata olishi mumkin".

Afrosiyob boshiga tushgan ayanchli voqealardan biri shuki, 1965-yil Samarqand shahridagi qurilishi rejalashtirilgan yangi ko'cha aynan ana shu qadimiy shahar xarobalari ustidan o'tishi belgilandi. O'sha vaqtda Samarqandda, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan ziyolilar qanchalik qarshilik qilishmasin, yo'l qurilishi boshlandi. Yo'l o'tadigan hudud tekislanayotgan vaqtda esa butun insoniyat uchun nodir topilma, bir qator davlatlar, umuman dunyo tarixi haqida ma'lumot beruvchi devoriy suratlar topildi. Eng yomoni, buldozer devoriy suratni qoq o'rtasidan ikkiga bo'lib o'tgan edi. Bu bugungi kunda mavjud yer yuzidagi tarixiy devoriy suratlarining eng yiriklaridan biri edi. Devoriy suratlarining qismlari ham juda noyob va ulkan ahamiyatga ega bo'lgani uchun darhol muzeyga jo'natiladi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab ana shu devoriy surat jahondagi ko'plab arxeolog, tarixchilar bir qator mamlakatlardagi ilmiy institutlarni o'ziga jalb eta boshladi. Negaki, ushbu devoriy suratlar ilk o'rta asr davrining nodir san'at asari, qadimgi So'g'diyona hayoti va madaniyati to'g'risida so'zlash bilan birga boshqa davlatlar madaniyatidan ham hikoya qiladi. Xususan, Afrosiyob shohi Varxumanning saroyida chizilgan deb hisoblanayotgan ushbu devoriy suratlarining "Elchilar xonasi" deb nomlangan qismi qadimgi davlatlar tarixiga yangilik kiritishi oydinlashdi. Yanayam aniqrog'i, devoriy suratda bir qator qadimiy davlatlar, jumladan, Koguryo davlatidan tashrif buyurgan elchilar surati ham tasvirlangan edi. Bu esa VI-VII asrlardayoq ikki davlat o'rtasida aloqalar mavjud bo'lganini tasdiqlaydigan juda muhim fakt edi.

Shunday qilib, mazkur yodgorlikning vaqt ta'sirida yemirilib borayotgani sababli So'g'diyona fransuz-o'zbek arxeologik missiyasi tashabbusi bilan Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorlikda "Afrosiyob devoriy suratlarini asrab-avaylash uyushmasi"ga asos solindi. Loyiha YUNESKONing Toshkentdagi vakolatxonasi ko'magida ishga tushirildi. 2014-yilda Samarqand shahridagi Afrosiyob muzeyida noyob qadimiy yodgorlik hisoblangan "Elchilar xonasi" devoriy suratlarining restavratsiya ishlari boshlandi. Bu ish hukumatimiz tomonidan hamda AQSH, Shvetsariya, Fransiya va Janubiy Koreya davlatlari ko'magida davom ettirildi.

"Elchilar xonasi" devoriy suratlarida o'sha davrdagi bir qator davlatlardan Afrosiyob hukmdori saroyiga tashrif buyurgan elchilar tasviri mazkur suratlarining umuminsoniy ahamiyatini yanada oshiradi. Xususan, unda VI-VII asrlardagi Koguryo davlati vakillari tasvirlangani Janubiy Koreya tarixida ham yangilik deb baholandi va koreyalik olimlar bilan hamkorlikda keng miqyosdagi o'rganish ishlari boshlab yuborildi.

2015-yilda Janubiy Koreyaning "Shimoliy-Sharqiy Osiyo tarixi" fondi ko'magida mazkur davlat tarixchi olim va mutaxassislari hamkorligida devoriy suratlarining vaqt ta'sirida yemirilgan qismlarini ham qayta tiklashga kirishildi. Bu esa O'rta Osiyo tarixida ilk marta va hatto dunyo tajribasida ham kamdan kam uchraydigan tajribalardan biri deb e'tirof etish mumkin. Xullas, Janubiy Koreya va O'zbekiston olimlari bilan hamkorlikda to'liq ilmiy asoslangan holda qadimiy Afrosiyob shahri o'sha holatda "qayta tiklandi". Aniqrog'i, qadimiy shahar maketi va shaharning ko'rinishi 3D formatdagi videolavhasi tayyorlandi. Buning uchun dastlab bugungi kunning eng zamonaviy texnologiyalari orqali shaharning qoldiqlari skaner qilindi. Shaharning o'rni yuqori sifatli, havodan va yon tomonlardan 3D fotoapparatlarida suratga olindi. Maxsus apparatlarda test analizlari olindi va hatto bir surat mikroskop orqali o'rganib chiqildi. Barcha devorlar qoldiqlari tadqiq etilib, taqqoslanib, kompyuter grafikasi asosida ilmiy asoslangan holda tiklab borildi. Devoriy suratlar va shaharning ko'rinishini tiklashda ultrabinafsha hamda infraqizil nurlar orqali o'sha ranglarning aniq holatini tiklashga erishildi. Vanihoyat, qadimiy shahar to'laligicha, o'z vaqtida qanday bo'lgan bo'lsa shundayligicha videolavha shaklida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ldi. Bu esa tarix fanida misli ko'rilmagan

yutuq edi. Biz endi Samarqandning VI asrda qayday ko‘rinishda bo‘lganligini bilamiz. Ana shu tariqa, qadimiy surat-ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar tarixiga yo‘l ochib bergan edi. Bugun Samarqandga tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyati “Afrosiyob” muzeyiga tashrif buyurib, tasvirlarni hamda devoriy suratlarni tomosha qiladi. Mazkur suratlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida yurtimiz olimlari ham bir necha marta Janubiy Koreyada bo‘lishdi. Dunyoning bir qator mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreyada ko‘plab ko‘rsatuvlar tashkil etildi.

Samarqand shahrining O‘rta asr mudofaa devorlari qoldiqlari O‘zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi bo‘lib, ushbu obyekt miloddan avvalgi XIV-XII asrlarga tegishli va hozirda Samarqand shaharda joylashgan. Mazkur obyekt “Yangi Xayrabod” MFY Urgut ko‘chasida joylashgan bo‘lib, davlat mulki sanaladi. Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan hamda davlat muhofazaasiga olingan.

Samarqandda ilk O‘rta asrlar davriga tegishli hukmdorlarning yozgi saroyi. Samarqand viloyati hududidagi Darg‘om kanalining chap qirg‘og‘ida ilk O‘rta asrlar davriga tegishli Samarqand hukmdorlarining yozgi saroyi topildi. Bu haqida O‘zbekiston Axborot agentligi xabar berdi. Ushbu shohona saroy Kofirqal’a nomli arxeologik yodgorlikda joylashgan bo‘lib, turli yillarda yodgorlikning turli hududlarida stratigrafik xarakterdagi kichik qazishma ishlari amalga oshirilgan.

2001-yildan boshlab esa 16 gektarli qadimgi shaharning 76x76 metrlik maydonida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining arxeologlari keng qamrovli arxeologik qazishma ishlarini olib bordi. Natijada qadimgi shaharning qal’a qismida (Arki a’losida) 2017-yilda monumental me’moriy majmua ochildi.

Milodiy V-VI asrlarga tegishli majmuada Samarqand ixshidlarining (hukmdorlarining) davlat arxivi va yozgi saroyi joylashgan bo‘lib, yong‘in tufayli vayronaga uchragan arxivdan noyob davlat hujjatlari (davlat boshqaruviga oid hujjatlar, elchilik xatlari, davlatlararo shartnomalar va b.) “bulla” deb atalgan taxtakachlarda so‘g‘diy yozuv namunalari topildi. Saroyning yog‘och ustunli ko‘rkam xonalaridan birida uch yarusli sufa, sufa ustida esa shersifat ko‘rinishdagi taxtiravonda hukmdor o‘tiribdi. Xonaning devorlari o‘yma yog‘och panno shaklidagi rasmlar galereyasi bilan bezatilgan. Uning o‘lchamlari 124x141 sm, pannoning o‘zi ikkita keng doskadan iborat bo‘lib, ular temir tutqich bilan biriktirilgan. Old tomondan taxtalarda zardushtiy insonlar suratlari to‘rt qavatga joylashtirilgan. Kompozitsiyada jami 46 ta odam shakli tasvirlangan. Ularning uchtasi shartli ko‘rinishda, yuqoridan chap qismidagi ikkita shakl arang ko‘rinadi, o‘ng tomondagi shaklning faqat qo‘li ko‘rinadi.

Kompozitsiyaning asosiy mavzusi sher shaklida taxtda o‘tirgan bosh ilohga sajda qilish. Ehtimoldan uzoq emas, bu zardushtiylikning bosh ma’budasi buyuk xudo Nana bo‘lishi mumkin. Odamlar uning huzuriga turli xil sovg‘alar bilan kelgan. Pastki qavatda musiqachilar galereyasi tasvirlangan. Undan keying pastki qavatda yana qo‘llarida turli xil sovg‘a-salomlar bilan kelgan ziyoratchilar suratlari tiz cho‘kkan holda aks ettirilgan. Pastki qavatda suratlar galereyasi markazida muqaddas olov ramzi Altar joylashgan bo‘lib, muqaddas altarga bir tomondan og‘zi mato bilan bog‘langan erkak talpinmoqda, ikkinchi tomondan esa ayolsifat shakl altar oloviga xushbo‘y o‘simlik kukunini sepmoqda.

Ushbu muqaddas shohona zal va zardushtiylik ma’budalarining eng ulug‘laridan biri, buyuk Nana surati, yog‘ochga o‘yib ishlangan devoriy panno VIII asr boshlarida arablarning Qutaybo ibn Muslim boshchiligidagi harbiy qo‘shini tomonidan yoqib yuborilgan.

Bunday ko‘p qirrali aniq suratlar kompozitsiyasi O‘rta Osiyo arxeologiya tarixida birinchi marta uchradi, bu dunyo ahamiyatiga molik noyob kashfiyotlar sirasiga kiradi.

Namaltepa O‘zbekistondagi madaniy merosi arxeologiya yodgorligi bo‘lib, V-VIII asrlarga tegishli va hozirda Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida joylashgan. Obyekt manzili Moyqovoq MFY bo‘lib, davlat mulki sanaladi. Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi

operativ boshqaruv huquqi asosida yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrdan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan.

Jalamatepa O'zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi bo'lib, IX-X asrlarga tegishli va hozirda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida joylashgan. Obyekt manzili Ko'kgumbaz MFY.

Oroltepa O'zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi bo'lib, VII-VIII asrlarga tegishli. Ushbu obyekt Samarqand viloyati Urgut tumani Soygus MFYda joylashgan.

Mingbuloqtepa O'zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi bo'lib, Samarqand viloyati Urgut tumani Mang'itobod MFYda joylashgan.

Qaroqchitepa O'zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi bo'lib, V-VII asrlarga oid obyekt hisoblanadi. Ushbu obyekt Samarqand viloyati Tayloq tumani Xo'jayuz MFYda joylashgan.

Kuyuttepa O'zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi bo'lib, hozirda Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Arpa MFYda joylashgan.

Samarqand shahrining O'rta asr mudofaa devorlari qoldiqlari O'zbekistondagi madaniy meros arxeologiya yodgorligi hisoblanib, XI-XII asrlarga tegishli. Samarqand shahri Yangi Xayrabod MFY, Urgut ko'chasida joylashgan. 2019-yil 4-oktabrdan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan.

Arxeologiya turizm bu-tarixiy-madaniy turizmning bir yo'nalishi bo'lib, maqsadi turistlarni qadimiy madaniyat o'choqlari, qoldiqlari, obidalarini, qoyatoshlardagi rasmlar va shakllar, qoldiq qal'alar, g'orlar, qadimiy uy ashyolari bilan tanishtirish, arxeologiya ma'ruzalariga, yig'inlariga taklif qilishdan iboratdir.

Haqiqatan ham arxeologik turizm ilmiy, ekskursiya, tarixiy-madaniy, etnografiya va ziyorat turizm turlari bilan birgalikda ishlaydi.

So'nggi o'n yilliklarda arxeologiya turizmi Misr Arab Respublikasi, Gretsiya, Hindiston, Ispaniya, Livan, Isroil, Turkiya davlatlarida kuchli rivojlanmoqda. Chunki, bu davlatlarda eramizdan oldingi ming yilliklarda qurilgan qal'alar, ibodatxonalar va boshqa inshootlarning qoldiqlari yaxshi saqlanib qolgan. O'zbekistonda ham jumladan, Samarqandda ham xalqaro arxeologik turizmni rivojlantirishning juda katta salohiyati borligini yuqoridagi manbalardan bilish mumkin. Bu salohiyatdan foydalanish uchun birinchi navbatda saqlanib qolgan arxeologiya obidalarida arxeologik turizm infratuzilmalarini yaratishimiz lozim. Ikkinchidan, arxeologiya obyektlarning reklamalarini va ularga mos turistik marshrutlarini yaratishimiz, uchunchidan, arxeologik turizm bo'yicha ichki va xalqaro turistlar uchun yangi mavzuli turistik paketlarni xalqaro turizm bozoriga taklif qilish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 2019 y.
2. Mirziyoev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora - tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2016 - yil 2 - dekabr
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobi. -T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 b.
4. Tuxliyev I.S., Abduxamidov S.A. "Turizm: nazariya va amaliyot". Darslik, Toshkent, 2021.-405 b